


## 2020-yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1 trln. 226,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 126,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 30,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 25,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 2,0 % ga o'sishi hisoblanadi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash indeksi (88,8 %) o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan pasayganligi kuzatildi.

### 2020-yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 49,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh qazib olish - 1,9 martaga, tabiiy qum - 1,5 martaga, ko'mir - 6,0 % ga oshdi, xom neft (98,5 %) pasaygan.



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------------

#### **Ko'mir, ming t.**

44,9



47,6

106,0



#### **Neft, ming t.**

19,8



19,5

98,5



2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

**Osh tuzi, ming t.**

2,9



1,3

43,7



**Qum, ming t.**

9,2



13,8

150,7



**Chaqiq tosh, ming t.**

16,1




31,2


1,9m




**Neft qazib olish, ming t.**



**Ko'mir qazib olish, ming t.**



**Chaqiq tosh qazib olish, ming t.**




**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2020-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 trln. 97,9 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,5 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,2 % ni (2019-yil yanvar-mart oylarida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,2 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 18,6 % (25,2 %) ni va quyi texnologiyali - 70,5 % (59,9 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**

**2020-yil yanvar-mart**



**2019-yil yanvar-mart**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 54,0 % ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 22,6 % ni, mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 4,7 % ni, yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 1,9 % ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,3 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda boshqa o'simlikdan yog' olishda hosil bo'lgan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar - 42,6 martaga, erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar - 2,1 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,9 martaga, bir qavatli ip - 35,0 % ga, un - 29,1 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
7,1	 <b>Paxta tolasi, ming t.</b>	9,1	128,9 ↑
2,8	 <b>Tozalangan paxta yog'i, ming t.</b>	2,7	95,3 ↓
28,3	 <b>Un, ming t.</b>	36,5	129,1 ↑
0,0	 <b>Portlandsement, ming t.</b>	34,7	- ↑
2,7	 <b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>	1,1	41,5 ↓

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va  
havoni konditsiyalash.**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining - 5,3 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash - 10,2 % ga oshganligi,


elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash (96,7 %) pasayganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash  
sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	--	---	-------------------------

**Elektroenergiya, mln.kVt/s**

0,8



0,004

0,5



**Issqlik energiyasi, ming Gkal**

20,4



17,4

85,2



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining - 1,2 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 3,6 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari - 2,8 martaga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 1,8 martaga, elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar - 31,2 % ga, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 16,0 % ga oshganligi, gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar (78,6 %) kamayganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-martida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	-------------------------

**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish  
va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

0,2



0,8

3,6m



**Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha  
taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

2,0



5,6

2,8m






### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 381,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan - 100,4 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,1 % ni tashkil etdi.

### 2020-yilning yanvar - mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 52,5 % dan 2020-yilning yanvar-mart oylarida 58,5 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 47,5 % dan 41,5 % ga pasayganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,9 % ni (2019-yil yanvar-mart oylarida 4,2 %) tashkil etdi.



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati

	Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2019-yil yanvar-martga nisbatan o'sish, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>381,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,4</b>
Termiz sh.	87,7	23,0	116,5
tumanlar:			
Angor	10,5	2,8	95,7
Boysun	10,0	2,6	95,8
Denov	62,6	16,4	77,2
Jarqo'rg'on	33,3	8,7	116,6
Qumqo'rg'on	18,8	4,9	165,2
Qiziriq	7,6	2,0	94,4
Muzrabot	6,2	1,6	95,9
Oltinsoy	15,4	4,1	107,7
Sariosiyo	14,8	3,9	94,5
Termiz	25,2	6,6	118,4
Uzun	11,0	2,9	95,6
Sherobod	11,9	3,2	51,4
Sho'rchi	65,9	17,3	107,6


### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 241,6 mlrd.soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 19,7 % ni tashkil etdi.

### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**

2020-yil yanvar - mart



2019-yil yanvar - mart



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) korxonalar tomonidan amalga oshirildi.

### **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng koʻp Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 18,6 %), Jarqoʻrgʻon (17,6 %), Denov (11,6 %) va Sariosiyo (10,2 %) tumanlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.




## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi


	Mrd.so'm	2019-yil yanvar-martga nisbatan o'sish, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1226,6</b>	<b>126,3</b>
Termiz sh.	228,4	144,1
tumanlar:		
Angor	23,1	82,4
Boysun	17,9	108,2
Denov	142,7	112,9
Jarqo'rg'on	216,0	123,1
Qumqo'rg'on	114,2	152,8
Qiziriq	43,6	148,4
Muzrabot	38,4	161,2
Oltinsoy	18,5	105,4
Sariosiyo	125,1	153,9
Termiz	31,8	104,3
Uzun	26,2	121,1
Sherobod	89,7	188,4
Sho'rchi	111,0	120,4

## Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi

(2020-yil yanvar-mart oylarida 2019-yil yanvar-mart oyiga nisbatan, %)




## Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora tadbirlar natijasida, Termiz shahri (jamiga nisbatan 18,6 %), Jarqo'rg'on (17,6 %), Sariosiyo (10,2 %) va Denov (11,6 %) tumanlari sezilarli darajada sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlari hajmini Qumqo'rg'on (2019-yil yanvar-mart oyiga nisbatan 165,2 %), Termiz (118,4 %), Jarqo'rg'on (116,6 %), Oltinsoy (107,7 %), Sho'rchi (107,6 %) tumanlari va Termiz shahri (116,5 %) da sezilarli darajada oshdi.

### 2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Termiz shahrida (1268,4 ming so'm), Jarqo'rg'on (989,3 ming so'm), Sariosiyo (605,1 ming so'm), Sho'rchi (531,5 ming so'm), Qumqo'rg'on (483,4 ming so'm), Sherobod (463,0 ming so'm), Termiz (411,1 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 144,6 ming so'm bo'lgan holda, Termiz shahrida - 487,0 ming so'mni, Termiz tumanida - 326,2 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 315,6 ming so'mni, Denov tumanida - 162,4 ming so'mni, Jarqo'rg'on tumanida - 152,3 ming so'mni tashkil etdi.

### 2020-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>465,5</b>	<b>144,6</b>
Termiz sh.	1268,4	487,0
tumanlar:		
Angor	174,0	79,3
Boysun	154,2	85,8
Denov	370,0	162,4
Jarqo'rg'on	989,3	152,3
Qumqo'rg'on	483,4	79,8
Qiziriq	381,7	66,8
Muzrabot	271,1	43,9
Oltinsoy	104,5	87,3
Sariosiyo	605,1	71,5
Termiz	411,1	326,2
Uzun	149,9	62,9
Sherobod	463,0	61,6
Sho'rchi	531,5	315,6

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Termiz shahriga (viloyat iste'mol tovarlarining 23,0 %), Sho'rchi (17,3 %), Denov (16,4 %), Jarqo'rg'on (8,7 %) va Termiz (6,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 497,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 40,5 % ni tashkil etdi.

### **2020-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oltinsoy (100,0 %), Uzun (100,0 %), Termiz (91,6 %), Angor (89,7 %), Denov (59,7 %) va Sho'rchi (40,2 %) tumanlarida kuzatildi.




Shu bilan birga, eng kichik ulush Sherobod (20,4 %), Qumqo'rg'on (24,8 %), Qiziriq (25,1 %), Muzrabot (26,0 %), Jarqo'rg'on (28,7 %), Sariosiyo (33,2 %) tumanlari va Termiz shahrida (36,6 %) kuzatildi.

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**


Bugungi kunda viloyatda 2827 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, shundan 572 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,2 %) Termiz shahriga, 319 tasi (11,3 %) Denov tumaniga, 206 tasi (7,3 %) Jarqo'rg'on tumaniga va 200 tasi (7,1 %) Termiz tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2020-yil 1-aprel holatiga)



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 215 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 13,0 foizi Termiz shahri, 12,1 % Denov tumaniga, 10,7 foizi Sariosiyo tumaniga, 8,8 foizi Sho'rchi tumaniga, 7,9 foizi Jarqo'rg'on tumaniga va 7,5 foizi Qumqo'rg'on tumaniga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2020-yil yanvar-mart oylarida)





## **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 20 ta loyiha bo'yicha 6,4 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va 84 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

### **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>2019 yil yanvar-mart</b>	<b>2020 yil yanvar-mart</b>
Loyihalar soni, birlik	7	20
Korxonalar soni, birlik	7	20
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	4,0	6,9
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll.	0,1	0,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	105	84

**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24